

Bosimov Asilbek Bahodir o‘g‘li

Guliston davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “ommaviy madaniyat” va uning oqibatlari, yoshlar ma’naviyatga ta’siri masalalari ochib berilgan. Bundan tashqari maqolada madaniyat, ma’naviyat tushunchalari va uning hozirgi zamondagi “ommaviy madaniyat” deya ta’rif berilayotgan madaniyat ko’rinishlarining turli oqibatlari ochib beriladi.

Kalit so’zlar: “ommaviy madaniyat”, ma’naviyat, madaniyat, pop art.

“Madaniyat” tushunchasi inson faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. “Madaniyat” jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muyyan darajasi. “Madaniyat” musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me’morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo‘ladi. “Ommaviy madaniyat” tushunchasi madaniyat tushunchasiga zid g‘oyalarni targ‘ib qilayotganini va uni qo’llab-quvvatlovchilarning ham borligi va ularning soni ortib borayotgani bizlarga fikir yuritish kerak ekanligini namoyon qilmoqda.

“Ommaviy madaniyat” tarixiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u g‘arb dunyosida o‘tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandı. Uni g‘arbda “pop-kultura” deb atashadi. Garchi madaniyat deb atalsa-da, aslida tub mazmun–mohiyatiga, maqsadiga, natijasiga ko‘ra “ommaviy madaniyat” chinakam madaniyatning kushandasidir. Mutaxasislarning fikriga ko‘ra, hali ilm-fanda “antikultura (“G‘ayri madaniyat”) ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun “ommaviy madaniyat” tushunchasi nochorlikdan qo’llanilmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida aytganidek “Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko‘rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki hil maqsadda, ezgulik va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin”[1]. Darhaqiqat, hozirgi kunda ommalashib borayotgan zamonaviy madaniyatlar, tarixiy qadriyatlarga nisbatan bir muncha e’tiborsiz munosabatda bo‘linmoqda. Bundan foydalangan ayrim toifalar yaratgan yangi g‘oyalarni to‘g‘ri va yangi madaniyat deya uni keng yoyishga harakat qilayotgan ko‘plab qo‘shtirnoq ichidagi davlatlar va insonlar bundan foydalanib qolishga, oldingi madaniyatlarni eskilik sarqiti deya o‘zлari o‘ylab topgan yangi g‘oyalarni mukammal va yangi madaniyatdir deya yoyishga harakat qilishmoqda. Ular keng yoyishga harakat qilayotgan, madaniyat deya tarif berayotgan g‘oyerlarining o‘zi esa ma’naviyat kushandasidir.

“Ma’naviyat” atamasi hozirgacha bo‘lgan adabiyotlarda 6 xil etimologik talqin etiladi. Bularga:

1. Sulton Olim talqiniga ko‘ra: “Ma’ni”- turkcha “ma’noli” so‘zidan olingandir. Ma’no izlagan ma’naviyat sari intiladi deydi u.
2. Karamatov talqiniga ko‘ra: “Ma’naviya”- arabcha, “lashkar ruhi” – degan ma’noni beradi.
3. M.Imomnazarov talqini bo‘yicha: “Ma’naviyat” – axloqiy demakdir deydi.
4. A.Erkayev talqiniga ko‘ra esa: “ma’nas” – Sanskrit tilida “aql” degani deydi u.
5. 1998-yilgi o‘zbek tili izohli lug‘atlarida esa: “m’ana” – arabcha mohiyat degani deyiladi.
6. Boshqa bir izohli lug‘atda esa: “ma’ni” – forscha, “fe'l-atvor”- deyiladi deb talqin beriladi. [2]

Yuqoridagi tariflardan bilish mumkinki, “ommaviy madaniyat” tushunchasini keng yoyishga urinayotgan shaxslarning yangilik, yangi g‘oyerlar va madaniyat deb aytishlari, oldingi madaniyat va ma’naviyatni eskilik sarqitlari deya ta’kidlashlari qanchalik to‘g‘ri? Bu tariflar mantiqsiz va xato ekanligini aytishimiz mumkin xalos. Bu mantiqsiz va xato ekanligini bilsak-da, bunga e’tiborszlik va loqaydlik bilan boqishimiz, unga qarshi biror choralarining ko‘rilmassligi achinarli holat emasmi?! Bu loqaydlik ortidan bunday ma’naviyatga ham, madaniyatga ham

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

to‘g‘ri kelmaydigan bu g‘oyalarning bizgacha yetib kelganligi buning isbotidir. Ular bu g‘oyalarni barcha insonlar tengligi deb talqin etishayotgani esa ajablanarli. Ular talqin etayotgan yangi madaniyatlarga misol keltiradigan bo‘lsak, bularga: LGBT, BTS va Pop art, eng achinarli holati insonlarning o‘z jinsini o‘zgartirishi desak xato bo‘lmasa kerak. Afsuski, bu narsalar bizni ma’naviyatimizga ham madaniyatimizga ham faqat salbiy tasirlarga olib kelishi mumkin. Bu yo‘llar insoniyatni jaholatga boshlovchi mafkuraviy taxtiddir desak to‘g‘ri bo‘lsa kerak. Shu o‘rinda Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asaridagi bir jumla beixtiyor yodimizga tushadi, “Mafkuraviy paligonlar yadro paligonlaridan kuchlidir” [3].

Bunday mafkura va yangi g‘oyalarning bizning hayotimizga qanday ahamiyati bor degan savolni berishingiz tabiiy albatta? Ular o‘zлari yaratayotgan yangi oqimlari, mafkuralari bilan o‘zlarining hayotlarinigina buzishadi deb o‘ylaysizmi? Lekin, bu o‘y hayollar aksi ekanini barchamiz tushunib turamiz lekin, bu biz uchun emas deya o‘zimizni ovutamiz, buning nomi esa albatta loqaydlik. Ular nafaqat o‘z hayotlarini balki o‘zlarining g‘oyalarni yoyish imkonini bo‘lgan shunday bo‘shliqlarni izlashadi va bu yerda o‘z g‘oya va mafkuralarini joriy qilishadi, bu esa nafaqat ularning hayoti, balki, o‘sha o‘z g‘oyalarni talqin qilgan jamiyatni ham tanazzulga olib keladi, bu oqimning oqibati kunday ravshan bo‘lsada insonlar bu oqim bizga tegishli emas deya o‘zlarini ovutishadi va loqaydliklari tufayli bu kulfatga o‘zlarining boshlarini dorga tutayotganini bilishmaydi. Bu narsani biz qisqa qilib ma’naviy bo‘shliqdan desak adashmaymiz. Shu o‘rinda Birinchi Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asaridagi yana bir jumlani eslatib o‘tishni o‘zim uchun ma’qul topdim va bu jumlalar quyidagicha: “Bu dunyoda ham, tabiatda ham, jamiyatda ham bo‘shliq albatta bo‘ladi. Qayerdadir bo‘shliq paydo bo‘ldimi, hech shubhasiz, uni albatta kimdir to‘ldirmog‘i darkor” [4]. Ammo zinhor bizning oramizdagи bo‘shliqni bunday illatlar bilan to‘ldirilmasligi uchun harakat qilishimiz zarurdir deb o‘layman.

Tabiiyki, o‘zi ular talqin qilayotgan g‘oyalarga nima kiradi? ularning salbiy tomoni nimada? Ular bilan qanday kurashish kerak? degan savollar tug‘ilishi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mumkin. Bulardan bir bo‘lgan LGBTga to‘xtaladigan bo‘lsak bu, bir jinslilar o‘rtasidagi nikohdir. Bu odob-axloq normalariga, ma’naviyatga ham, madaniyatga ham zid ekani ma’lum. Bu tamoil dastlab Fransiyada rasman qonuniy yo‘l bilan e’lon qilingan va hozirgi kunda G‘arb, balki, butun dunyoga keng yoyilmoqda. Bu hodisa bizni tashvishga soladi. O‘zi Alloh Taolo bizlarga berilgan ne’matlardan, juftlarimizdan yuz o‘girib, biz Allohga isyon keltirgan bo‘lib qolmaymizmi? Bu to‘g‘risida Alloh Taolo nozil qilgan Qur’oni Karimning “Rum surasi, 21-oyati” da quyidagicha ta’rif beriladi. “Uning alomatlaridan (yan biri) sizlar (nafsni qondirish jihatidan) taskin topishingiz uchun o‘zlariningizdan juftlar yaratgani va o‘rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilgandir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan insonlar uchun alomatlar bordir”.

Shunday ekan, Alloh Taolo o‘z kalomida bizlarni juft qilib yaratganini ta’kidlab o‘tgan ekan, nima uchun biz bu narsaga qarshi chiqishimiz zarur ekanligini bir tafakkur qilib ko‘rish uchun ayni vaqt emasmi, degan savollar qiy Naydi? Musulmonlarda madaniyat “odob, axloq, xulq” demakdir. Lekin bu qilinayotgan ishlar na xulq uchun, na axloq me’yorlarga to‘g‘ri kelmasligi aslida achinarlidir. Biz bu bilan faqat Islom dini orqali misol keltirmoqdamiz, aslini olganda dunyodagi barcha dinlarda ham, bu haqida ma’lumot bo‘lsa kerak deb o‘layman.

Afsuski, bu g‘oyalarni talqin qilayotganlar buni tan olgisi kelmaydi, xalos. Bir jinslilar o‘rtasidagi nikoh hozirgi zamonda oila inqiroziga olib kelayotganligini ko‘rsatib o‘tishim darkor. Bu J.Uinterning “XXI asrda Islom. Postmodern dunyoda qiblani topish” asarida oila inqiroziga shunday to‘xtalib o‘tadiki, “oldingi zamonalarda oila erkak va ayol o‘rtasidagi nikoh hurmat, bir birini ardoqlash ustiga qurilgan bo‘lsa, hozirgi zamonda erkak va ayol o‘rtasidagi nikohga hurmatning o‘zi yetarli emas deb bilishadi” [5]. Bu nima degani bir jinslilar o‘rtasidagi nikoh va barchaning tengligi tamoyili asosida, ayollarning erlariga itoatsizlik va ularga hurmatsizlik bilan qaralishiga olib kelayabdi deyishimiz mumkin, albatta. G‘arb taqlqin qilayotgan har xil “madaniyat” deya atalayotgan odatlarning ko‘pchiligi qadimiy yashash odati va madaniyatiga to‘g‘ri kelmaydi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Bularning yana bir turlaridan biri bu, “Pop art” hisoblanib buning mazmun-mohiyati aniq bo‘limgan juda baland ovozda kuylanuvchi, shovqinli musiqa sanalib, bu inson ongida o‘ta zo‘riqish alomatlarini keltirib chiqarish bilan bиргаликда insonni jahldor, sal narsaga jizzakilashish va insonning fikrlashiga salbiy ta’sir o‘tkazishini aytib o‘tishim zarur. Bu oqim tarafdorlari uchun madaniyat, ma’naviyat yoki aksincha insonni kamolatga erishtiradigan yo‘llarning qizig‘i yo‘q. ular uchun maishiy texnika va moddiy hayot muhimroq. Ular uchun televizor va shunga o‘xhash maishiy texnika ikkita bo‘sа undan-da, yaxshi degan tamoyil ishlashini ko‘rib achinishdan boshqa iloj qolmaydi. Amerikaning taniqli adibi P.Bred Beri aytganidek “ommaviy madaniyat” maktabida o‘sgan avlod uchun hayotning ma’nosи- avtomabil, zamonaviy texnik qurilmalar va to‘ldirilgan muzlatgichga ega bo‘lishdir” deydi, u. Bu oqimning eng ayanchli nuqtalaridan biri bu insonlarning o‘z jinsini o‘zgartirishi hisoblanadi. Bu qandayin ayanchli holat ekanligi, bizni o‘ylantirmay qo‘ymasligi mumkin emas, lekin bu ochiq haqiqat ekanligini tan olishdan boshqa ilojimiz yo‘qligini bilamiz.

Yoshlarning ilmiy salohiyati va bo‘layotgan mafkuraviy, diniy va ma’naviy tahdidlarning oldini olish hamda, bunday g‘oyalar va oqimlarga bирgalikda ma’naviyatni yuksaltirish orqali o‘z yoshlarimizni ongida bu yod g‘oyalar uchun “ma’naviy bo‘shliq” qoldirmasligimiz darkor. Bu bo‘yicha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi olib borilayotgan ko‘plab ishlarni misol keltirishimiz mumkinki, shunday tadbirlardan biri, 2023-yil 22- dekabr kuni Respublika ”Ma’naviyat va ma’rifat” kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda ma’naviyat va madaniyat faollari, adabiyot va san’at namoyandalari, shuningdek, Oliy Majlis palatalari, Vazirlar Mahkamasi vakillari, vazirlar va hokimlar ishtirok etdi. Bu kengash davomidan ma’naviyat va madaniyatni rivojlantirish uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev 9 ta asosiy yo‘nalishda ish olib boorish kerakligi to‘g‘risida o‘z fikrlarini ilgari surdi.

1. Ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibor intilish davom etirilishi. Bu sohada ko‘proq izlanishlar olib borilishi kerakligi.
2. Madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarda hokimlar mas’uliyatini oshirilishi,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ularning ma'naviy salohiyati aniqlab borilishi ko'zda tutilgan.

3. Teatr san'ati rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqish lozimligi va unda milliy g'urur tuyg'usini uyg'otuvchi pyessa va sahna asarlarining ko'proq sahnalashtirilishi.

4. Har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozallar va to'garak o'tkaziladigan xonalardan iborat bittadan madaniyat markazi faoliyati yo'ilga qo'yilishi.

5. Maqom, baxshichilik san'atini ilmiy asosda o'rganish va rivojlantirishni kuchaytirish.

6. Musiqa va raqs san'ati rivojini qo'llab quvatlash. Ularning esa, yurt tarixini, uning milliyligini tarannum etuvchi musiqalarga ham urg'u berilishi lozimligi ta'kidlangan.

7. Xalqaro maydonda o'zbek madaniy diplomatiyasi kengaytiriladi, muzeylarda, xususan, Islom sivilizatsiyasi markazida birinchi va ikkinchi renessansini chuqurroq o'rganish. Va uning bugungi kunga ahamiyati olib berish.

8. Kino sohasini rivojlantiriladi, unda vatan tarixi bo'yicha "Tirik tarix" bo'yicha kino ishlanishi.

9. Tasviriy va amaliy san'at sohasini rivojlantirishga doir tamoyillar ilgari suriladi.

Prezidentimizning bu ilgari surilayotgan tamoyillari juda to'g'ri ekanligi, bu tamoyillar bo'yicha ko'proq ishslash, zarurligi bu belgilangan tamoyillarning har bir bandi ishlaydigan bo'lsa, "Ma'naviy bo'shliq" degan tushuncha bo'lmasligi va bizning o'z milliyligini anglab yetgan xalqimiz har xil buzg'unchi g'oyalarga ergashmasligi kafolatlanadi.

Biz nafaqat milliyligimizni, ma'naviyatimizni asrab qolish uchu tarixni balki adabiyot va bobolarimiz tomonidan yozilgan asarlarni mukkammal tarjima qilinishi va uni yoshlarga ijobiy tomonlari olib berilishi darkordir.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lp'on ta'kidlaganidek, "Adabiyot yashasa millat yashaydi" degan so'zlariga e'tibor beradigan bo'lsak, milliylik va ma'naviyatni yuksaltirishning birdan-bir yo'li bu ilmiy, diniy, ma'naviy-ma'rifiy

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

sohadagi bilimlar mukammalroq o‘rgatililishida ekanligi namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, jamiyat talqin qilayotgan bu “madaniyat” deya atalayotgan bu oqimning aslida madaniyat va ma’naviyat uchun zarar ekanligini ko‘rib o‘tishimiz mumkin, bu yod g‘oyalarni yoshlar ongining salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Ular keng yoyishga harakat qiluvchi LGBT deymizmi, Pop art deymizmi, barchasi inson ongidagi qadimdan ma’naviyat belgisi bo‘lgan milliylik, sharm-hayo, oila muqaddasligi va uni saqlab qolish to‘g‘risidagi g‘oyalarga zid kelayotganligini ko‘rgan holatda bu yod g‘oyalardan yoshlarimizni va bu to‘g‘risida o‘z qarashlariga ega bo‘lmagan o‘rta yoshli insonlar, balki, butun boshli jamiyatimizni ogohlantirishimiz zarurligi bugungi kunning dolzarb muammosi bo‘lib qolayotganidan kelib chiqqan holda bunga birgalikda “bir yoqadan bosh chiqarib” ish olib borishimiz kerakligini anglatadi. Faqat bu narsalarga jiddiyroq yondashish zarur degan savollar o‘rtaga tushadi, albatta. Bu narsaning mukammal yo‘li sifatida madaniy va ma’rifiy tashkilotlarga yoshlar bilan ishlashni kuchaytirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilinishi kerak deb o‘ylaymiz. Ma’naviyatning pastligi har qanday bo‘shliqni yuzaga keltiruvchi asosiy omil ekanligini inobatga olgan holda, bu sohaga ko‘proq e’tibor berilishini taqazo qilayotganini inobatga olib, buning ustida ko‘proq bosh qotirish zarur. Yoshlar bilan ishlashda ularni kitob o‘qishga, internet saytlaridan mazmunli foydalanishga chaqiruvchi go‘yalar ishlab chiqilishi zarur ekani dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Islom Karimov. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. Toshkent ma’naviyat. 2008-yil 77-bet.
2. Mansurov Abdulaziz “Ma’naviy tarbiyaning tarixiy-nazariy asoslari. Toshkent Metodist nashri. 2023-yil. 4-bet.
3. Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. Toshkent ma’naviyat. 2008-yil 113-bet.
4. Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. Toshkent ma’naviyat. 2008-yil 12-bet.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

5. J.Uinter. "XXI asrda islom: postmodern dunyoda qiblani toppish. 56-bet.
6. Akramovich, Saidkulov N. "The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth." European Journal of Humanities and Educational Advancements, vol. 1, no. 2, 2020, pp. 7-9.
7. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.
8. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.
9. Akramkulovich Nuriddin Saidkulov. (2023). PROBLEMS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT IN ENSURING THE STABILITY OF SOCIETY. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 233–241. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-25>